

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TILAKOV SUKROB MUXAMMADIYEVICH

**QUYMA POLIMEROLTINGUGURTLI ASFALTBETON
QOPLAMASINING EKSPLUATATSION KO'RSATKICHLARINI
OSHIRISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 — “Geotexnika” (Yo'llar, yo'llarni raqamlashtirish va yo'l harakati
xavfsizligi. Yo'l telematikasi yo'nalishlari bo'yicha)**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Tilakov Suxrob Muxammadiyevich

Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish usulini takomillashtirish3

Тилаков Сухроб Мухаммадиевич

Совершенствование способа повышения эксплуатационных показателей литого полимерсероасфальтобетонного покрытия.....25

Tilakov Sukhrob Mukhammadiyevich

Improving the method for enhancing the operational performance of cast polymer-sulfur asphalt concrete pavements.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/31.08.2022.T.73.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TILAKOV SUKROB MUXAMMADIYEVICH

**QUYMA POLIMEROLTINGUGURTLI ASFALTBETON
QOPLAMASINING EKSPLUATATSION KO'RSATKICHLARINI
OSHIRISH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.09.02 — “Geotexnika” (Yo‘llar, yo‘llarni raqamlashtirish va yo‘l
harakati xavfsizligi. Yo‘l telematikasi yo‘nalishlari bo‘yicha)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5010 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sadikov Ibragim Salixovich

Texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Axmedov Sherzod Baxodirovich

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent

Kasimov Ibrohim Irkinovich

Texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/31.08.2022.T.73.05 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "___" ___ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo'lchilar ko'chasi 1-uy. Tel./faks: (998-71) 277-54-87, e-mail: tashiit_rektorat@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" _____ kuni tarqatilgan.
(2024 yil "___" ___ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.X. Urokov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

R.M.Xudaykulov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD, professor

K.X. Azizov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari (raisi), t.f.n, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda avtomobil yo‘llari asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratga chidamliligini oshirishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu jumladan, eksterimal issiq iqlim muammolari tufayli yoz oylarida asfaltbeton qoplamalari +70 °C dan yuqori harorat ta’sirida qizib, mustahkamligi kamayib bormoqda, buning natijasida plastik deformatsiyalar hisoblangan g‘ildirak izlari yuzaga kelmoqda. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun avtomobil yo‘llariga yuqori haroratga chidamli asfaltbeton texnologiyalarini tadbiiq etishimiz zarur. “Yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida yo‘llarni ta’mirlash uchun quyma oltingugurtli asfaltbeton texnologiyasini joriy etish yuqori samara beradi”¹. Asfaltbeton qoplamasining yuqori haroratga chidamliligini oshirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Jahonda avtomobil yo‘llarining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish, xususan avtomobil yo‘llari asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida, asfaltbeton qorishmasi tarkibi uchun yangi energiya tejamkor qurilish materiallari hamda yuqori iqtisodiy samara beradigan modifikatsiyalangan oltingugurtli bitumdan foydalangan holda asfaltbetonning yangi tarkibini ishlab chiqib qoplama mustahkamligini oshirish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, yuqori haroratli ekspluatatsiya sharoitida avtomobil yo‘llari asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yangi tejamkor qurilish materiallari - modifikatsiyalangan polimeroltingugurtli bitumni qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

Respublikamizda avtomobil yo‘llarining xizmat muddatini oshirish va iste’mol xususiyatlarini yaxshilash, belgilanayotgan ta’mirlash ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2023 yildagi PQ-330 son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”² gi qarorida hamda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va avtomobil yo‘llari tarmog‘ini jadal rivojlantirish” bo‘yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, avtomobil yo‘llari asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratga chidamliligini oshirish maqsadida asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish borasida ilmiy izlanish olib borish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining III bo‘limi, PF-5890-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, PQ-4545-son “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar

¹https://spravochnik.ru/arhitektura_i_stroitelstvo/vnedrenie_tehnologii_litogo_seroasfaltobetona_dlya_remonta_dorog_v_vysokotemperaturnyh_usloviyah_ekspluatatsii/

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.10.2023 yildagi PQ-330 son “Yo‘l xo‘jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

to'g'risida"gi Qarori, PQ-330-son "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II "Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik, transport va asbobsozlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi. Dissertatsiya ishi IL-4821091606 "Ekstremal transport yuklamalar va haroratni qabul qiluvchi asfaltbetonlarning reologik xossalarini "Superpave" tizimida yo'naltirib tartibga solish" nomli fundamental xalqaro grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Modifikatsiyalangan oltingugurtli bitum olish, oltingugurtli asfaltbeton, quyma asfaltbeton hamda quyma oltingugurtli asfaltbeton texnologiyalari ustida dunyo olimlaridan H. Ahmad, G.L. Baumgarder, V.A. Gladkix, V.V. Pronin, S.A. Korolev, A.A. Kotlyarevskiy, Y.E. Vasilev, P.V. Saxarov, V.B. Ivanov, A.Y. Tixonov, B.A. Kozlovskiy, G.K. Syuni, A.M. Boguslavskiy, S.A. Andropov, G.V. Vasilovskaya, D.R. Nazirov, V.D. Galdina, M.V. Jeleznov, V.Y. Gladkov, R.G. Telyashev, N.V. Motin, A.N. Shubin va boshqalar tomonidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'lum bir natijalarga erishilgan, respublikamiz olimlaridan oltingugurtli asfaltbeton mavzusida F.Q. Shamsiyev, E.U. Kasimovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqoridagi tahlillar natijasidan kelib chiqadiki, quyma oltingugurtli asfaltbetonning yuqori haroratga chidamliligini oshirish borasida yetarli ilmiy ishlar olib borilmagan. O'zbekiston va Markaziy Osiyoda esa quyma oltingugurtli asfaltbetonning yuqori haroratga chidamliligini oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat transport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Transport yuklamalari va iqlim sharoitini hisobga olgan holda yo'l qoplamasining belgilangan transport-ekspluatatsion xususiyatlariga ega yo'l to'shamalarini konstruksiyasini tuzishda tizimli yondashish" nomli ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtomobil yo'llari asfaltbeton qoplamalarining yuqori haroratga chidamliligini oshirish maqsadida quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobil yo'llarida quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonni qo'llashga oid texnologiyalarni tahlil qilish;

modifikatsiyalangan polimeroltingugurt olish texnologiyasini ishlab chiqish va uning xossalarini tahlil qilish;

modifikatsiyalangan polimeroltingugurtli bitum olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda bog'lovchining fizik-mexanik ko'rsatkichlarini oshirish;

yuqori haroratga chidamli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning yangi tarkibini ishlab chiqish va ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish usulini takomillashtirish;

yuqori haroratga chidamli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida polimerlangan oltingugurt bilan modifikatsiyalangan bitum, quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasi olingan.

Tadqiqotning predmeti polimeroltingugurtli bitum olish texnologiyasi va yuqori haroratga chidamli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton tayyorlash texnologiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oltingugurtli modifikatsiyalangan bitumning reologik xossalari va kimyoviy strukturasi aniqlashda, IQ-spektroskopiya, eksperimental tadqiqot, laboratoriya sinovlari, matematik statistika, regression tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mahalliy oltingugurtni M4 markali modifikator bilan zaharli gazlarni bartaraf etish texnologiyasidan foydalanib modifikatsiya qilinishi natijasida modifikatsiyalangan oltingugurtning polimerlanish miqdorini 42 % ga yetkazishga erishilgan;

yo'l qoplamalarini qurish va ta'mirlash uchun mustahkamligi, yoriqbardoshliligi va haroratga chidamliligi yuqori bo'lgan yangi qurilish materiali - quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton olingan;

ishlab chiqilgan yangi tarkibdan foydalanib, quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamalarining g'ildirak izi hosil bo'lishga chidamliligi, suvga chidamliligi, yuqori haroratga chidamliligi kabi talab etiladigan ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishga erishilgan;

asosiy tarkib va texnologik omillar (polimeroltingugurt tarkibi, tayyorlash harorati, modifikator turi va miqdori) quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning fizik - mexanik va ekspluatatsion ko'rsatkichlariga ta'sir qilishi qonuniyatlar natijasida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasini ishlab chiqarish bo'yicha texnologik reglament ishlab chiqilgan;

ilmiy izlanishlari natijasini IQN 82 - 2024 "Qish mavsumida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ta'mirlash bo'yicha yo'riqnoma" idoraviy qurilish normalarini qayta ishlab chiqishda "Bog'lovchi materiallar", "Quyma oltingugurtli asfaltbeton", "Avtomobil yo'llari asfaltbeton qoplamalaridagi chuqurlarni ta'mirlash usullari" bo'limlarida foydalanilgan;

quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasining I, II, III tiplari uchun ekspluatatsion ko'rsatkichlari oshirilgan maqbul donadorlik tarkibi ishlab chiqarilgan;

asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishda quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning takomillashgan usulidan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy izlanishlar standartlashgan uslub va zamonaviy hamda yuqori aniqlikdagi raqamlashgan vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilganligi, avtomobil yo'llari asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida ularning xossalarini tahlil qilish zamonaviy laboratoriya qurilmalaridan foydalangan holda amalga oshirilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro o'xshashligi, tarkibni ishlab chiqishda korrelyatsiya va regressiya koeffitsientlarini qo'llash orqali olingan natijalarning shu kabi modellar natijalari bilan o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati asfaltbeton qoplamalari yuqori harorat ta'sirida ekspluatatsion xossalarini kamayishining sabablari tahlillar natijasida aniqlandi va asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsion xossalarini oshirish maqsadida quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish usuli takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tarkib asosida tayyorlangan quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasini avtomobil yo'llari ko'priklarida gidroizolyatsion qoplama hamda ko'prik qoplamalarini yotqizishda, avtomobil yo'llarini asfaltbeton qoplamalarini qurish va ta'mirlash ishlarida qoplamaning yuqori qatlamini yotqizishda, piyodalar yo'laklarini qurishda, avtomobil yo'llari asfaltbeton qoplamalaridagi o'yiqlarni qishki sovuq kunlarda havo harorati -10°C gacha bo'lganda ta'mirlash orqali qoplamaning yuqori haroratga chidamliligini oshirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish usulini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

polimerlanish miqdorini 42 % ga teng polimeroltingugurtdan quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton uchun ishlab chiqilgan tarkib asosida asfaltbeton zavodida qorishma tayyorlanib Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 4 - noyabrdagi, № 03 - 4177 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko'rsatkichlari oshirilganligi kuzatilgan;

quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton yo'l qoplamalarini qurish va ta'mirlash uchun mustahkamligi, yoriqbardoshliligi va haroratga chidamliligi hamda siljishga chidamliligini oshiradi va bu natijalar Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 4 - noyabrdagi, № 03 - 4177 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonni qo'llanishi qoplamaning 70°C haroratda siqilishga mustahkamligi hozirgi kunda qo'llanilayotgan asfaltbetonga nisbatan 15 % ga ortishiga olib kelgan;

quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning I, II, III tiplari uchun ishlab chiqilgan maqbul donadorlik tarkibi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 4 - noyabrdagi, № 03 - 4177

sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplama mustahkamligi ortishiga olib kelgan;

quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning takomillashgan usuli Avtomobil yo'llari qo'mitasiga qarashli korxonalarda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2024-yil 4 - noyabrdagi, № 03 - 4177 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda qoplamaning ekspluatatsion ko'rsatkichlari oshirilgan, shuningdek ushbu uslubni qo'llash natijasida bitum miqdorini 37,5 % gacha iqtisod qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro (jumladan 1 ta "Scopus" bazasiga kirgan konferensiyada) va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy-ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqot natijalarining aprobatyasi, e'lon qilinganligi va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning zamonaviy holati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida Respublikamizdagi avtomobil yo'llari asfaltbeton qoplamalarining ekspluatatsiya davrida yuzaga kelgan muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillarning tahlili to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Avtomobil yo'llaridagi asfaltbeton qoplamalarda quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonni qo'llash orqali, qoplamalarning ekspluatatsion ko'rsatkichlari oshirish borasida bajarilishi kerak bo'lgan ishlar oldingi ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili natijasida aniqlandi.

Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasi tarkibidagi modifikatsiyalangan polimeroltingugurt, modifikatsiyalangan polimeroltingugurtli bitumni ishlab chiqarish maqsadida bir qancha patentlar tahlil qilindi va ulardagi kamchiliklar aniqlandi. Mavjud patentlardagi muammolarni bartaraf etish maqsadida, polimeroltingugurtli bitum ishlab chiqarish borasida bajariladigan ishlar rejasi tuzib olindi.

Dissertatsiyaning “**Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasi hamda materiallarga qo‘yiladigan talablar**” deb nomlangan ikkinchi bobida quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton va qorishma tarkibidagi mineral materiallarga qo‘yilgan talablar o‘rganildi. Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasini tayyorlash maqsadida qo‘llaniladigan materiallarning fizik - mexanik xossalari aniqlanib me‘yoriy hujjatlar talabi bilan taqqoslanganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasining optimal tarkibini ishlab chiqish maqsadida Respublikamizning Jizzax viloyatidagi Sayxun tosh maydalash zavodidagi dolomit hamda Samarqand viloyatidagi Oqtosh tosh maydalash zavodidagi Granit tosh materiallaridan foydalanildi.

Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasini tayyorlash maqsadida dolomit va granitli chaqirtoshning fizik - mexanik xossalari aniqlanib me‘yoriy hujjat talabi bilan taqqoslandi. Sinov natijalari 1-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Qo‘llanilgan chaqirtoshning fizik-mexanik xossalari

№	Ko‘rsatkichlar	ГОСТ 8267 talabi bo‘yicha chaqirtosh	Haqiqiy holat dolomit	Haqiqiy holat granit
1	Suv shimuvchanligi, %	0,8	0,6	0,4
2	Sovuqqa chidamlilik markasi	F50	F50	F50
3	Maydalanuvchanlik markasi	1000	1200	1400
4	Eziluvchanlik markasi	II 2	II 1	II 1
5	Yumshoq jinslar donalarining miqdori, %	2	2	1.5
6	Ignasimon yapoloqsimon donalarning miqdori, %	15	11,6	8,7
7	Chang va loy zarralarining miqdori, %	1,1	0,8	0,7
8	To‘kma zichlik, kg/m ³	1520	1590	1580
9	G‘ovakligi, %	42,4	40,1	39,8
10	Haqiqiy zichligi, g/sm ³	2,72	2,79	2,78
11	O‘rtacha zichlik, g/sm ³	2,63	2,43	2,42

Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton I, II, III tiplari uchun optimal tarkib ishlab chiqishda qo‘llanilgan qumning fizik-mexanik xossalari 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval.

Qo‘llanilgan qumning fizik-mexanik xossalari

№	Ko‘rsatkichlar	ГОСТ 8736 bo‘yicha qumni xossalari	Haqiqiy holat dolomit qumi	Haqiqiy holat granit qumi
1	O‘lcham moduli	2	2	2
2	Maydalanuvchanlik markasi	1000	1200	1400
3	Haqiqiy zichlik P, kg/m ³	2370	2390	2380
4	O‘rtacha zichlik p, kg/ m ³	1810	1830	1840
5	G‘ovakligi, %	17	15	14
6	Chang va loy zarralarining miqdori, %	0,36	0,21	0,19

Dissertatsiyaning “**Yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitga mos keluvchi quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish**” deb nomlangan uchinchi bobida polimeroltingugurtli bitumning optimal tarkibini ishlab chiqarish bo‘yicha eksperimentlar bajarilib polimeroltingugurtning polimerlanish miqdori 42 % ga yetkazilishi natijasida bog‘lovchining fizik-mexanik xossalari oshirilgan. Asfaltbeton qoplamasining ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning I, II, III tiplari uchun optimal tarkib ishlab chiqilgan.

Polimeroltingugurtli bitumning optimal tarkibini ishlab chiqish maqsadida turli modifikatorlar bilan modifikatsiyalangan oltingugurtli bitumning fizik-mexanik xossalari GOCT 22245 ga binoan GOCT 11501, GOCT 11506, GOCT 11505 talablari bo‘yicha aniqlandi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Modifikatsiyalangan oltingugurtli bitumning fizik-mexanik xossalari

№	Bitum va oltingugurt ulushi, %	Modifikator M4 ulushi, %	Reaktordagi barabanning aylanishlar soni(min/ab)	Reaktordagi harorat (°C)	Modifikatsiya qilish vaqti, (daqqa)	Ignaning botish chuqurligi, (0,1mm) 25°C GOCT 11503	Yumshash harorati, (°C) GOCT	Cho‘ziluvch anligi,
1	100	-	-	-	-	68	46	67
2	90:10	0,5	200	135	180	66	48	35
3	85:15	0,75	200	135	180	64	50	32
4	80:20	1	200	135	180	63	52	30
5	75:25	1,25	200	135	180	62	53	30
6	70:30	1,5	200	135	180	64	54	29
7	65:35	1,75	200	135	180	60	55	29
8	60:40	2	200	135	180	58	55	28
9	55:45	2,25	200	135	180	58	54	27
10	50:50	2,5	200	135	180	57	54	27
11	90:10	0,5	200	175	160	63	51	39
12	85:15	0,75	200	175	160	61	53	35
13	80:20	1	200	175	160	58	54	32
14	75:25	1,25	200	175	160	56	59	32
15	70:30	1,5	200	175	160	55	63	31
16	65:35	1,75	200	175	160	54	66	30
17	60:40	2	200	175	160	52	70	30
18	55:45	2,25	200	175	160	51	66	29
19	50:50	2,5	200	175	160	50	65	28

Yuqoridagi jadvalning 17-qatoridagi texnologik parametrdan foydalanib bitumni polimeroltingugurt bilan modifikatsiya qilganimizda, modifikatsiyalangan polimeroltingugurtli bitumning yumshash harorati 70 °C ga yetdi.

Dolomitli tosh materiallaridan ishlab chiqilgan donadorlik tarkibdan foydalanib I tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qarishmasining optimal tarkibidagi bog'lovchi miqdorini aniqlash maqsadida 7 tarkib asosida namunalar tayyorlanib laboratoriya sinovlari bajarildi. Polimeroltingugurtli bitum tarkibidagi polimeroltingugurt miqdori 40 % ga teng. Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4 - jadval.


Dolomitli tosh materiallaridan tayyorlangan I tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton namunalarning fizik-mexanik xossalari

No	Bog'lovchi miqdori %	Suv shimuvchanligi, %	Zichligi, gr/sm ³	Suvga bardoshliliigi, %	Siqilishga mustahkamligi 20 °C, MPa	Siqishga mustahkamligi, 50 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 70 °C, MPa	Qorishmaning yoyilishi, mm
1	7,7	3,4	2,38	1,1	4,04	1,73	1,03	26,2
2	7,9	2,1	2,33	1,09	3,74	1,7	0,97	25,4
3	8,1	1,5	2,35	0,85	3,21	1,74	1,14	27,7
4	8,3	0,87	2,34	0,91	3,44	1,8	0,84	28,9
5	8,5	0,69	2,43	0,9	3,36	1,75	0,92	30,7
6	8,7	0,31	2,41	1,02	2,81	1,6	0,63	31,5
7	8,9	0,24	2,44	0,99	3,21	1,84	0,68	32,1

4 - tarkib asosida tayyorlangan namunalarning fizik – mexanik xossalari yuqoriligi aniqlandi va optimal tarkib quyidagidan iborat:

Chaqiqtoş	
10-20	9,17 %
5-10	32,095 %
Qum	36,68 %
Mineral kukun	13,755 %
Polimeroltingugurtli bitum	8,3 %.

Granitli tosh materiallarining fizik-mexanik xossalari aniqlanib I tipli quyma oltingugurtli asfaltbeton qarishmasining donadorlik tarkibi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Granitli tosh materiallarining I tip uchun donadorlik tarkibi.

Ishlab chiqilgan donadorlik tarkibdan foydalanib I tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasining optimal tarkibini ishlab chiqishda qorishma tarkibidagi bog'lovchi miqdorini aniqlash maqsadida 7 tarkib asosida namunalar tayyorlanib laboratoriya sinovlari bajarildi. Qorishmadagi polimeroltingugurtli bitum tarkibidagi polimeroltingugurt miqdori 40 % ga teng. Natijalar 5 - jadvalda keltirilgan.

5 - jadval.

Granitli tosh materiallaridan tayyorlangan I tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning fizik-mexanik xossalari

№	Bog'lovchi miqdori, %	Suv shimuvchanligi, %	Suvga bardoshliligi, %	Siqilishga mustahkamligi 20 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 50 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 60 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 70 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 0 °C, MPa	Yorilishga bardoshliligi, MPa	Qorishmaning yoyilishi, mm
1	7,7	0,52	0,81	2,62	1,35	1,14	0,89	7,1	10,5	21
2	7,9	0,42	0,83	2,69	1,38	1,12	0,91	7,3	11,2	24
3	8,1	0,15	1,03	2,68	1,39	1,18	0,93	7,2	11,4	27
4	8,3	0,04	0,95	2,63	1,23	1,11	1,01	7,7	11,96	32
5	8,5	0,13	0,84	2,81	1,16	0,98	0,85	6,8	13,8	34
6	8,7	0,09	0,9	2,55	1,04	0,89	0,78	6,24	12,16	33
7	8,9	0,14	0,87	2,48	0,97	0,85	0,75	6,12	11,42	34

Yuqoridagi 4 - tarkib asosida tayyorlangan namunalarning fizik - mexanik xossalari yuqoriligi aniqlandi va optimal tarkib quyidagicha bo'ldi:

Chaqiqtoş

10-20 13,755 %

5-10 27,51 %


Qum 32,095 %

Mineral kukun 18,34 %

Polimeroltingugurtli bitum 8,3 %.

Granitli tosh materiallarining fizik-mexanik xossalari me'yoriy hujjat talabida belgilangan tartibda laboratoriya sinovlari natijasida aniqlanib, II tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning optimal tarkibini ishlab chiqish maqsadida mineral materiallar donadorlik tarkibi ishlab chiqildi (2-rasm).

Respublikamiz hududida yoz asfaltbeton qoplamalaridagi harorat 70 °C dan yuqori haroratgacha ko'tarilib ketishi kuzatiladi. Shu sababli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasining laboratoriya sharoitida, suv shimuvchanligi, suvga bardoshliligi, yorilishga mustahkamligi, 50 °C, 60 °C va 70 °C haroratda siqilishga mustahkamligi ko'rsatkichlarini o'lchash ishlari olib borildi.



2 - rasm. Granitli tosh materiallarining II tip uchun donadorlik tarkibi.

Granitli tosh materiallaridan ishlab chiqilgan donadorlik tarkibidan foydalanib II tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qarishmasining optimal tarkibini ishlab chiqishda qarishma tarkibidagi polimeroltingugurtning me'yoriy miqdorini aniqlash maqsadida 5 xil tarkib asosida namunalar tayyorlanib laboratoriya sinovlari bajarildi. Qarishmadagi polimeroltingugurtli bitum tarkibidagi polimeroltingugurt miqdori 40 % ga teng. Sinov natijalari 6 - jadvalda keltirilgan.


6 - jadval.

II tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning fizik mexanik xossalari

No	Bog'lovchi miqdori, %	Suv shimuvchanligi, %	Suvga bardoshlilik, %	Siqilishga mustahkamligi, 20 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi, 50 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi, 60 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi, 70 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi, 0 °C, MPa	Yorilishga bardoshlilik, MPa	Qorishmaning yoyilishi, mm
1	8,7	0,29	0,91	2,22	1,07	0,98	0,77	6,31	12,97	27
2	8,9	0,11	0,85	2,78	1,38	1,19	1,06	7,53	13,27	31
3	9,1	0,17	0,95	2,13	1,06	0,81	0,76	8,0	10,28	33
4	9,3	0,14	0,73	2,31	0,9	0,78	0,69	5,7	10,12	32
5	9,5	0,12	0,81	2,14	0,82	0,74	0,71	5,8	10,14	33


Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qarishmasining II tipi uchun optimal tarkibi uchun polimeroltingugurtli bitumning me'yoriy miqdori 8,9 % ga tengligi aniqlandi. II tip uchun ishlab chiqilgan tarkibdan foydalanib, bog'lovchi tarkibiga oltingugurtni 40 % gacha bo'lgan ulushlarda qo'shib namunalar tayyorlandi va ularning fizik-mexanik xossalari aniqlandi. Ishlab chiqilgan tarkib uchun 8,9 %

bog'lovchi tarkibida 40% polimeroltingugurt bo'lganda qoplamaning ekspluatatsion ko'rsatkichlari yuqori natijani qayd etdi.



3 - rasm. Suv shimuvchanligi va siqilishga mustahkamligining harorat va bog'lovchi miqdoriga bog'liqligi, II tip

II tip uchun polimeroltingugurtli bitum miqdori 8,9 % ni tashkil etgan tarkibdan tayyorlangan namunaning yorilishga bardoshliligi 13,27 MPa ni tashkil etdi.




4 - rasm. II tip, namunalarning yorilishga bardoshliligi.

I tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonni fizik - mexanik xossalarini BND 60/90 bitumdan tayyorlangan quyma asfaltbeton hamda ПНСТ 266-2018 talabi hamda oldingi amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan taqqoslandi.

Quyva polimeroltingugurtli asfaltbeton namunalari fizik - mexanik xossalari oldingi amalga oshirilgan ilmiy ishlar bilan taqqoslash jadvali

№	Fizik – mexanik xossalari nomi	Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tarkib	IHCT 266-2018 talabi	V.V.Pronin ilmiy ishida	S.A.Korolev ilmiy ishida	A.A.Kotelya revskiy ilmiy ishida
1	Siqilishga mustahkamligi 20 °C, MPa	2,78	2,5	2,3	2,52	2,58
2	Siqilishga mustahkamligi 50 °C, Mpa	1,38	1	0,8	1,15	1,25
3	Siqilishga mustahkamligi 70 °C, Mpa	1,06	-	-	-	-
4	Siqilishga mustahkamligi 0 °C, Mpa	7,53	6,0	7,0	6,9	7,5
5	Suvga bardoshlilik, %	0,95	0,85	0,87	0,88	0,9
6	Suv shimuvchanligi, %	0,043	0,5	0,28	0,38	0,6
7	Qorishmaning qulay yoyilishi, sm	3,2	3	3	2,9	2,9

Yuqoridagi 7-jadvaldagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, quyva polimeroltingugurtli asfaltbetonning I tipi uchun polimeroltingugurtli bitum (POB) miqdori 8,9 % ga teng. II tip uchun qorishma tarkibidagi bog‘lovchi miqdori 8,9% bo‘lganda polimeroltingugurtni 40% gacha ulushlarda qo‘shib namunalar tayyorlandi. Optimal tarkib uchun polimeroltingugurtli bitum tarkibida polimeroltingugurt miqdori 40 % bo‘lganda qoplamaning ekspluatatsion ko‘rsatkichlari yuqori darajani qayd etdi.



5-rasm. Muallif tomonidam ishlab chiqilgan tarkibdagi quyva polimeroltingugurtli asfaltbeton namunalari fizik - mexanik xossalari oldingi qilingan ilmiy ishlar bilan taqqoslash grafigi.

Me'yoriy hujjatlar talabida 50 °C da siqilishdagi mustahkamlik chegarasi 1 MPa, 70 °C da esa talab keltirilmagan. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tarkibda esa 50 °C da siqilishdagi mustahkamlik chegarasi 1,38 MPa, 70 °C da siqilishdagi mustahkamlik chegarasi 1,06 MPa natijaga erishildi.

Yuqoridagi 2-tarkib asosida tayyorlangan namunalarning suv shimuvchanligi, suvga bardoshliligi, yorilishga bardoshliligi, 0 °C, 20 °C, 50 °C, 50 °C, 70 °C haroratda siqilishga mustahkamligi yuqori ko'rsatgichni qayd etdi. Optimal tarkib quyidagicha bo'ldi:

Chaqiqtoş	
10-20	7,288 %
5-10	36,44 %
Qum	29,152 %
Mineral kukun	18,22 %
Polimeroltingugurtli bitum	8,9 %.


Granitli tosh materiallaridan ishlab chiqilgan donadorlik tarkibdan foydalanib III tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasining optimal tarkibini ishlab chiqish maqsadida 8 xil tarkib asosida namunalar tayyorlanib laboratoriya sinovlari bajarildi. Qorishmadagi polimeroltingugurtli bitum tarkibidagi polimeroltingugurt miqdori 40 % ga teng. Natijalar 8 - jadvalda keltirilgan.

8 - jadval.

III tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning fizik-mexanik xossalari


No	Bog'lovchi miqdori, %	Suv shimuvchanligi	Suvga bardoshliligi,	Siqilishga mustahkamligi, 20 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi, 50 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 60 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 70 °C, MPa	Siqilishga mustahkamligi 0 °C, MPa	Yorilishga bardoshliligi, MPa	Qorishmaning yoyilishi, mm
1	9,9	1,15	0,87	2,61	1,22	1,02	0,86	6,9	12,37	24
2	10,3	0,79	0,82	2,75	1,08	0,91	0,79	7,31	10,94	28
3	10,7	0,52	0,83	2,68	0,97	0,82	0,73	7,15	10,56	29
4	11,1	0,21	0,98	2,11	0,89	0,68	0,51	6,6	10,39	31
5	11,5	0,22	0,84	2,21	0,82	0,64	0,48	5,78	9,84	32
6	11,9	0,23	0,79	1,84	0,73	0,56	0,45	4,75	9,24	33
7	12,3	0,14	0,94	1,75	0,69	0,49	0,46	5,24	8,92	34
8	12,7	0,16	0,95	1,55	0,65	0,51	0,45	5,58	8,48	32

Bog'lovchi tarkibidagi modifikatsiyalangan oltingugurt miqdori 40 % bo'lgan III tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasining optimal tarkibi uchun bog'lovchi miqdori 10,3 % ni ga tengligi aniqlandi.



6-rasm. Suv shimuvchanligi va siqilishga mustahkamligi harorat va bog'lovchi miqdorida o'zgarishi, III tip.

III tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton namunalarining fizik-mexanik xossalari tahlil qilinganda, fizik-mexanik xossalari qarishmadagi bog'lovchi tarkibidagi polimeroltingugurtning miqdoriga bog'liqligi aniqlandi. Qorishma tarkibidagi polimeroltingugurtli bitum miqdori 10,3% bo'lganda bog'lovchi tarkibidagi polimeroltingugurt miqdorini 40% gacha ulushlarda qo'shib namunalarning fizik-mexanik xossalari aniqlanib tahlil qilindi. III tip uchun ishlab chiqilgan tarkibda polimeroltingugurtli bitum miqdori 10,3% bo'lganda, bog'lovchi tarkibidagi polimeroltingugurt ulushi 40% bo'lganda qoplamaning ekspluatatsion ko'rsatkichlari yuqori natijani qayd etishi qonuniyatlar natijasida aniqlandi.



7-rasm. III tipli quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning siqilishdagi mustahkamligini polimeroltingugurt miqdoriga bog'liqlik qonuniyati.

Yuqoridagi 2-tarkib asosida tayyorlangan namunalarning suv shimuvchanligi, suvga bardoshliligi, yorilishga bardoshliligi, 0 °C, 20 °C, 50 °C, 50 °C, 70 °C haroratda siqilishga mustahkamligi yuqori ko'rsatkichni qayd etdi. Optimal tarkib quyidagicha bo'ldi:

Chaqiqtoş 5-10	8,97 %
Qum	61,893 %
Mineral kukun	18,837 %
Polimeroltingugurtli bitum	10,3 %.

Quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning fizik - mexanik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda qoplamaning ekspluatatsion ko'rsatkichlari, bog'lovchi hamda mineral materiallarning fizik-mexanik xossalari, donadorlik tarkibiga hamda qorishmaning optimal tarkibiga bog'liqligi aniqlandi.


Quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qoplamada g'ildirak izining botish chuqurligi 50 °C haroratda, I tipda 3,5 mm, II tipda 3,8 mm, 60 °C haroratda I tipda 3,7 mm, II tipda 3,9 mm, 70 °C haroratda I tipda 4,0 mm, II tipda 4,1 mm ga tengligi laboratoriya sharoitida aniqlandi. Erishilgan natijalar me'yoriy hujjat talabini qanoatlantiradi.

Asfaltbeton qoplamalarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirish usulini takomillashtirish maqsadida polimerlanish miqdori 42 % ga teng bo'lgan polimeroltingugurt bitum bilan modifikatsiya qilindi va polimeroltingugurtli bitumning yumshash harorati 70 °C ga yetkazildi. Respublikamizning Sayxun, Oqtosh TMZ laridagi mineral materiallarning fizik - mexanik xossalari aniqlanib donadorlik tarkibi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan donadorlik tarkibiga polimeroltingugurtli bitumni optimal miqdorda qo'llash orqali quyma polimeroltingugurtli asfaltbetonning I, II, III tiplari uchun takomillashgan yangi tarkib ishlab chiqildi va qoplamaning yuqori haroratdagi ekspluatatsion ko'rsatkichlarini oshirishga erishildi.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli ekspluatatsion sharoitda quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasini ishlab chiqarish texnologiyasi va uning iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida quyma polimeroltingugurtli asfaltbeton qorishmasi tarkibidagi polimeroltingugurtli bitumni tayyorlash jarayonida atrof-muhitga ajralib chiqayotgan zaharli gazlarni bartaraf etish texnologiyasi, qorishmani ishlab chiqarish texnologiyasi hamda iqtisodiy samaradorligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

